

## OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MENEJERLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI

**Abdullaev Fazliddin**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-3452-3766

[f.abdullayev041@gmail.ru](mailto:f.abdullayev041@gmail.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida menejerlarni tayyorlash jarayonida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning dolzarb masalalari hamda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish yo'nalishlari tahlil qilingan. Menejer kadrlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun kasbiy, kommunikativ va konseptual kompetensiyalar zarurligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, AQSh, Yevropa va Sharq mamlakatlari tajribasida ta'lim jarayonida innovatsion o'qitish texnologiyalari, amaliyotga yo'naltirilgan dasturlar va interfaol usullar keng qo'llanilishi ta'kidlangan. Ushbu tajribalarni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish menejerlarni raqobatbardosh va strategik fikrlay oladigan mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, kompetensiya, menejer, innovatsion boshqaruv, malaka oshirish, pedagogik texnologiya.

## НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ МЕНЕДЖЕРОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

**Абдуллаев Фазлиддин**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В статье анализируются актуальные проблемы развития профессиональных компетенций в процессе подготовки менеджеров в высших учебных заведениях и направления использования передового зарубежного опыта. Обосновывается необходимость формирования профессиональных, коммуникативных и концептуальных компетенций для успешного функционирования управленческих кадров. При этом опыт США, Европы и стран Востока свидетельствует о широком использовании инновационных технологий обучения, практико-ориентированных программ и интерактивных методов в образовательном процессе. Внедрение данного опыта в отечественную систему образования будет способствовать формированию управленцев как конкурентоспособных и стратегически мыслящих специалистов.

**Ключевые слова:** высшее образование, компетентность, менеджер, инновационный менеджмент, профессиональное развитие, педагогические технологии.

## DIRECTIONS FOR USING ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN TRAINING MANAGERS IN DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

**Abdullaev Fazliddin**

*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *This article analyzes the current issues of developing professional competencies in the process of training managers in higher education institutions and the directions of using advanced foreign experience. The need for professional, communicative and conceptual competencies for the successful functioning of managerial personnel is substantiated. At the same time, the experience of the USA, Europe and Eastern countries emphasizes the widespread use of innovative teaching technologies, practice-oriented programs and interactive methods in the educational process. The implementation of these experiences in the national education system serves to form managers as competitive and strategically thinking specialists.*

**Keywords:** *higher education, competence, manager, innovative management, advanced training, pedagogical technology.*

### **Kirish.**

Jahonda samarali ishlab chiqarishni tashkil etish, ta'lim jarayonlarini takomillashtirish va sifatini oshirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar orasida bo'lajak boshqaruv rahbar xodimlarini tayyorlash masalasi muhim ilmiy yo'nalish sifatida ajralib turadi. Xususan, zamonaviy boshqaruv jarayonida rahbar kadrlarni tayyorlashning iqtisodiy hamda pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda pedagogik-iqtisodiy texnologiyalarni rivojlantirish orqali inson resurslarining samaradorligini oshirish, axborotlarni tezkor va tizimli o'zlashtirish, alternativ yechimlarni ishlab chiqish hamda optimal qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifa sifatida ko'rilmoqda. Bunda o'z-o'zini rivojlantirish, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish va boshqaruv faoliyatida samarali yondashuvlarni tatbiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng qamrovda amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekiston qurilishi jarayonida milliy iqtisodiyotni innovatsion asoslarda rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonda ta'lim sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy kompetentligini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida bo'lajak boshqaruv rahbar xodimlarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, ularni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, kasbiy malakani chuqurlashtirish, yangicha yondashuvlarni joriy etish hamda innovatsion metodlardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimli tarzda amalga oshirilmoqda. Xususan, "Har bir oliy ta'lim muassasasi dunyoning yetakchi ilmiy va ta'lim muassasalari bilan bevosita hamkorlikni yo'lga qo'yishi, o'quv jarayoniga ilg'or texnologiyalarni keng joriy etishga intilishi, o'quv dasturlari va o'quv materiallari asosida xalqaro ta'lim standartlari bo'yicha o'quv-uslubiy faoliyatga faol jalb qilishi, mahorat darslarini o'tkazish, do'stona xorijiy ta'lim muassasalarining yuqori malakali o'qituvchilari va olimlari uchun malaka oshirish kurslari, ular asosida tizimli ravishda yosh o'qituvchi va tadqiqotchilar uchun amaliyotdan o'tishni tashkil etish, shuningdek, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish" vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim tizimida zamonaviy boshqaruv rahbar xodimlarini tayyorlashning samarali pedagogik shart-sharoitlarini sifat jihatdan amalga oshirish hamda bunday kadrlarni tayyorlash bo'yicha maqsadli pedagogik, pedagogik-iqtisodiy va pedagogik-psixologik tadbirlar samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni yanada keng tashkil etish maqsadga muvofiq.

### Adabiyotlar sharhi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida innovatsion boshqaruvni shakllantirish va boshqaruv kompetentligini rivojlantirish bo'yicha bir qator olimlar muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, S.S. G'ulomov o'z tadqiqotlarida ta'lim muassasalarida boshqaruvni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda raqamli ta'lim muhitini yaratish orqali samaradorlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. M.T. Mirsoliyeva oliy ta'limda pedagogik menejmentni takomillashtirish va rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqqan bo'lsa, M. Pardaev iqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida boshqaruv samaradorligini oshirish hamda bozor talablariga mos kadrlar tayyorlashning innovatsion usullarini taklif etgan. Yo.U. Ismadiyarov va O.X. Xamidov esa oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv yondashuvlari, sifat menejmenti hamda universitetlarning xalqaro reytinglarda o'rnini oshirish masalalarini ilmiy asoslab bergan. M. Sharifxo'jaevning ishlari esa kadrlar tayyorlashda zamonaviy boshqaruv metodologiyasini amaliyotga joriy etishga qaratilgan (Abdullayeva, 2019).

Rahbar va mutaxassislarining uzluksiz kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish borasida Ahmedova (2023), Innazarov (2021), Kalmuratov (2024), boshqalarning tadqiqotlari uzluksiz ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqishga, kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga joriy etishga qaratilgan. Ta'lim tizimi sifat monitoringi borasida esa Turg'unov (2014), Inoyatov (2014), Begimqulov (2007), Mardonov (2006), Xodjamqulovlar (2019) tomonidan o'tkazilgan ilmiy izlanishlar ta'lim sifatini baholash mezonlari, reyting tizimlari va sifat kafolatini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Ushbu olimlarning izlanishlari natijasida ta'lim tizimida innovatsion boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish hamda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Zamonaviy boshqaruvning rivojlanishida R.Anisimov, P.Ananin, T.Vasileva, Z.Bagirova, E.Belova, I.Gancherenok, O.Karpova, S.Muxoed, O.Sitnikova, M.Shifrin va boshqalarning ishlari ahamiyatli ekanini ta'kidlab o'tish lozim. Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv masalalari A.Egorshin, S.Reznikning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. Biroq, zamonaviy rahbar kadrlarni tayyorlash uchun oliy ta'limda samarali pedagogik shart-sharoitlar yaratish va maqsadli tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir (Abdullayeva, 2019).

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar tomonidan oliy ta'limda innovatsion boshqaruv, kadrlar kompetentligini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish yo'nalishlarida muhim tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ularning aksariyati mahalliy tajribaga asoslangan. Ilg'or xorijiy tajribalarni, xususan, Yevropa va AQSh universitetlarida qo'llaniladigan menejerlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samarali mexanizmlarni chuqur o'rganish va ularni milliy tizimga moslashtirish borasida izlanishlar yetarli darajada olib borilmagan. Shu bois, xorijiy ilg'or amaliyotlarni integratsiya qilish yo'nalishida ilmiy ishlarda kamchiliklar mavjudligi seziladi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Zarur kasbiy kompetensiyalar shakllanishiga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar va yetakchi texnologiyalarni aniqlash hamda asoslab berish muammosini yechish, avvalo, iqtisodiy kadrlarni kasbiy tayyorlashning xalqaro va milliy amaliyotdagi tendensiyalari va modellarini o'rganishdan boshlanishi zarur. O'zbekistonda iqtisodchi kasbi an'anaviy ravishda nufuzli va maktab bitiruvchilari uchun jozibador hisoblanadi. Biroq, iqtisodchi kasbining nufuziga qaramasdan, mehnat bozori ehtiyojlari bilan oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilari intiklari o'rtasida ma'lum disbalans mavjudligini qayd etish zarur. Bu esa asosan kasbiy kompetensiyalarning yetarlicha shakllanmaganligi bilan bog'liq.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyot sohasi mutaxassislarining kasbiy faoliyatiga qo'yilayotgan talablar ko'proq nazariy bilimlardan ko'ra amaliy ko'nikmalar va mahoratlarga yo'naltirilgan. Potensial ish beruvchilar esa to'g'ridan-to'g'ri o'zlari uchun zarur kompetensiyalarga ega kadrlarni tayyor bo'lgan holda qabul qilishdan manfaatdor. Shu nuqtai nazardan,

iqtisodchilarni tayyorlashga oid zamonaviy davlat ta'lim standartlari mehnat bozori talablariga mos ravishda kasbiy kompetensiyalar ro'yxatini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Eng avvalo, ish beruvchilar bitiruvchilarning amaliy ko'nikmalarini baholaydilar, shuningdek, "soft skills" — universal kompetensiyalar mavjudligiga e'tibor qaratadilar. Bular — jamoada ishlay olish mahorati, boshqaruvchilik, tashkiliy va kommunikativ qobiliyatlar, stress holatlarida samarali harakat qilish va maqsadga erishish ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash qobiliyati, iqtisodiy obyektlar va tizimlarni tahlil qilishda tizimli yondashuv mahoratidan iborat. Universal kompetensiyalardan tashqari, ish beruvchilar iqtisodchi bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini ham baholaydilar. Bu kompetensiyalar "Iqtisodiyot" yo'nalishidagi bakalavriat, magistratura va maxsus ta'lim dasturlari bo'yicha davlat ta'lim standartlarida belgilangan kasbiy faoliyat turlari bilan bog'liqdir. Jumladan, tashkiliy-boshqaruvchilik, nazorat-tahlil, axborot-tahliliy, hisob-kitob va iqtisodiy hamda boshqa turdagi kasbiy vazifalarni bajarishda namoyon bo'ladigan kompetensiyalar shular jumlasidandir. Kelajak iqtisodchilarini kasbiy tayyorlashda milliy ta'lim tizimi muhim o'rin egallaydi. Uning tashqi muhitdagi o'zgarishlar va talablarga moslashuvchanligi, innovatsionligi va yangi axborot jamiyatining zamonaviy ehtiyojlariga javob bera olishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Iqtisodchilarni kasbiy tayyorlashda ta'lim omillarining ta'sirini o'rganishda MDH olimi O.V. Jironkina tomonidan taklif etilgan kelajak mutaxassis modelira murojaat qilish mumkin. Ushbu modelga ko'ra, kelajak iqtisodchilarini tayyorlashda uchta asosiy yondashuvni ajratish mumkin:

1. ijtimoiy-yo'naltirilgan,
2. amaliyotga yo'naltirilgan,
3. gumanitar yo'nalishga ega bo'lib, oliy ta'limning nazariy yo'naltirilgan amaliyoti bilan to'ldirilgan (Жиронкина, 2003).

Olim fikriga ko'ra, mutaxassisni tayyorlash — uning «modelini» yaratish jarayonida kelajak iqtisodchining maqbul holati va xususiyatlarini, ya'ni uning «obrazi»ni belgilash, shuningdek, mazkur obrazga erishish algoritmini ishlab chiqish zarur. Bu jarayonga, o'z navbatida, oliy ta'lim pedagogikasining rivojlanishi va oliygohlarda iqtisodchilarni tayyorlash amaliyoti ta'sir ko'rsatadi.

Kelajak iqtisodchilarini kasbiy tayyorlash masalasini Amerika, G'arbiy Yevropa va Yaponiya universitetlarida o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu mamlakatlarda an'anaviy ravishda ijtimoiy-yo'naltirilgan va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlar qo'llaniladi (Жиронкина, 2003).

Ijtimoiy-yo'naltirilgan yondashuvning asosida kelajak iqtisodchilarining raqobatbardoshligini ta'minlash prinsipi yotadi. Bunda raqobatbardoshlik deganda mutaxassis-iqtisodchilarning jamiyat va mehnat bozori talablariga mos kela olishi tushuniladi. Bu yondashuv milliy iqtisodiy modelga asoslanadi va uning xususiyatlarini hisobga oladi.

Masalan, AQShda iqtisodchilarni kasbiy tayyorlash modelida an'anaviy kompetensiyalar — boshqaruvchilik, hisob-tahlil, nazorat va auditorlikdan tashqari, psixologik xavfsizlik kompetensiyasi ham kiritilgan. Amerikacha modelning asosiy e'tibori milliy amaliyot uchun unchalik odatiy bo'lmagan kompetensiyalarga qaratilgan: masalan, vakolatlarni delegatsiya qilish mahorati va sherikni tinglash hamda anglay olish qobiliyati (Дружилов, 2014).

Amerikacha yondashuvning yana bir qiziqarli jihati — ta'lim jarayonini universitet doirasidagina emas, balki uning hamkorlari orqali ham integratsiya qilish imkoniyati mavjudligida. Bu hamkorlar qatoriga yetakchi kasbiy iqtisodiy va buxgalteriya assotsiatsiyalari kiradi: Amerikaning diplomlangan jamoat buxgalterlari instituti (AICPA), Amerikaning buxgalterlar assotsiatsiyasi (AAA), Xalqaro moliya rahbarlari assotsiatsiyasi (FEI), Ichki auditorlar instituti (IIA), Boshqaruv hisobchi buxgalterlar instituti (IMA), shuningdek, talabalarga haq to'lanadigan amaliyot imkoniyatini taqdim etadigan yirik kompaniyalar.

Ta'lim va amaliyotning bunday uyg'unligi talabalarni hamkor tashkilotning haqiqiy kasbiy faoliyatiga chuqur kirib borishiga sharoit yaratadi va egallangan bilimlarni amaliy ko'nikmalar va mahoratlar orqali mustahkamlaydi.

Yevropa mamlakatlarida kasbiy tayyorgarlik tizimi ko'p jihatdan Amerika modeliga o'xshash bo'lib, uning tamoyillari turli davlatlardagi oliy ta'lim muassasalari uchun yagona standartlar tizimida mustahkamlangan. Bu jarayon Bolonya kelishuvida aks etgan bo'lib, u 1999 yilda imzolangan. Bolonya jarayonining rivojlanishi mehnat bozori qoidalarini belgilaydigan yagona standartlarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi. Shu maqsadda bir qator asosiy hujjatlar qabul qilindi: «Kasbiy ta'lim tizimlarini integratsiya qilish strategiyasi» (Lissabon, 2000 y.), «Kasbiy ta'lim dasturlari sohasida hamkorlik haqida deklaratsiya» (Bryugge, 2001 y.).

Keyinchalik, 2008 yilda belgilangan darajalar va malaka mezonlari asosida Yevropa kasbiy malaka ramkasi (EQF) qabul qilindi. U milliy kasbiy malaka tizimlariga uyg'un holda ishlab chiqilgan. EQF oliy ta'limning uch bosqichi bo'yicha malaka darajalarini aniqlab berdi: bakalavriat, magistratura va aspirantura (doktorantura). Har bir darajaning tavsifi uchta tushunchaga asoslandi: bilim, ko'nikma va mahorat. Shu tariqa, 5-6-bosqich bakalavriatga, 7-bosqich magistraturaga, 8-bosqich esa aspirantura (doktorantura)ga to'g'ri keladi (Дружилов, 2014).

Yapon modelida iqtisodchilarni kasbiy tayyorlash ham Amerika va Yevropa modellari kabi ijtimoiy-yo'naltirilgan yondashuvga asoslanadi. Biroq, mazkur modelning o'ziga xosligi Yaponiya iqtisodiyotining spetsifikasi, shuningdek, milliy va madaniy an'analar bilan belgilanadi. Juda ko'p jihatdan raqobatbardosh bitiruvchi tayyorlash kasbiy qadriyatlar va fazilatlariga yo'naltirilgan: yuqori ishchanlik, stress holatlariga bardoshlilik, kompaniya – ish beruvchi qadriyatlariga hurmat, jamoada ishlay olish mahorati, o'z kasbiy darajasini doimiy oshirib borish intilishi<sup>1</sup>.

Kelajak iqtisodchilarini tayyorlashda asosiy e'tibor quyidagi kompetensiyalar turlarini shakllantirishga qaratiladi: kasbiy, kommunikativ va konseptual.


Kasbiy kompetensiyalar iqtisodchi faoliyatining poydevori hisoblanadi, chunki ular hisob-kitob, tahlil va nazorat jarayonlarini samarali amalga oshirish imkonini beradi. Bu bilim va ko'nikmalar iqtisodiy jarayonlarni chuqur anglash, moliyaviy natijalarni baholash hamda samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiyalar ham muhim ahamiyatga ega, chunki iqtisodchi faqat raqamlar bilan ishlamaydi, balki hamkasblar, rahbariyat va tashqi manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot olib borishi zarur. Bu uning tashkiliy va boshqaruvchilik vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishiga zamin yaratadi. Konseptual kompetensiyalar esa kelajakdagi iqtisodiy muammolarni oldindan ko'ra bilish, kompaniya strategiyasini belgilash va qarorlarning ijobiy yoki salbiy oqibatlari uchun mas'uliyatni zimmasiga olish qobiliyatini ifoda etadi. Umuman, ushbu uch turdagi kompetensiyalar iqtisodchining kasbiy yetukligi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi (1-rasm).

Bakalavriat darajasida asosiy urg'u kasbiy turdagi kompetensiyalarga qaratiladi. Magistrlar va doktorlar tayyorgarligida esa e'tibor ko'proq kommunikativ va konseptual kompetensiyalarga yo'naltiriladi.

O'zbekistonda iqtisodchilarni kasbiy tayyorlash tizimining xalqaro tizimga integratsiyasi ayniqsa 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmon – “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ni (Ингиу, 2007) ishlab chiqish orqali yanada faollashdi. Ushbu qonun hujjatlari oliy ta'limni qamrov va sifat jihatidan oshirish, xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish hamda innovatsiya va raqamli texnologiyalar asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan.

<sup>1</sup> <https://europass.europa.eu/en/europass-digital-tools/european-qualifications-framework>.





**1-rasm. Zamonaviy iqtisodchi uchun zarur kompetensiyalar**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 8 avgustdagi PF-5139-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash" to'g'risidagi qarori qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi magistraturasi tinglovchilari tomonidan malakaviy amaliyot va stajirovka o'tash tartibi to'g'risidagi nizomi tasdiqlandi (Lex.uz., 2019).

Amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvni kelajak iqtisodchilarini tayyorlash jarayoniga joriy etishning ikkinchi muhim omili bu — mehnat bozorining ta'siri va uning amaliy kompetensiyalar, jumladan, psixologik xavfsizlik kompetensiyasiga bo'lgan talabi hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasidagi turli tarmoqlarda — bank faoliyatida, sug'urta bozorida, qimmatli qog'ozlar bozorida, davlat moliyaviy nazorati va iqtisodiy xavfsizlik sohasida, auditorlik amaliyotida — xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat xususiyatlari kompaniyalarning ehtimoliy ish beruvchi sifatida bitiruvchilardan ularning aniq yo'nalishiga mos holda amaliy vazifalarni bajarish va kasbiy muammolarni hal qilishga tayyorligini talab qiladi.

Shu munosabat bilan mehnat bozoridagi ushbu talablarni qondirish maqsadida ta'lim standartlari va o'quv dasturlari transformatsiya qilinmoqda. Bu, avvalo, amaliy mashg'ulotlar va turli yo'nalishdagi amaliyotlar ulushini ko'paytirish orqali amalga oshirilmoqda. Ham mahalliy, ham xorijiy mamlakatlar amaliyotida amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvning asosiy mazmuni — stajirovkalar va amaliyot turlarini kengaytirish hamda ularning o'quv dasturlari tuzilmasidagi ulushini oshirish hisoblanadi.

Amerikan, yevropa va yapon universitetlari tajribasida amaliyot o'tadigan kompaniyaning mavqeiga katta ahamiyat beriladi. Ko'p hollarda amaliyot joyini topish talabani o'ziga yuklatilsa-da, ayrim hollarda ish beruvchilarning o'zi tashabbus ko'rsatib, talabani amaliyotga taklif qilishi mumkin. Talaba uchun kompaniyaning nufuzi katta ahamiyatga ega, chunki amaliyotni muvaffaqiyatli o'tgan taqdirda ish beruvchi unga ish taklif qilishi ehtimoli yuqori. Agar ushbu kompaniyada ishga joylashish imkoni bo'lmasa ham,

amaliyotdan o'tganligi va obro'li kompaniya tavsiyasi bitiruvchiga boshqa yaxshi kompaniyada ish topishda katta yordam berishi mumkin.

Yevropa mamlakatlarida (Buyuk Britaniya, Daniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya) amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvning samarali misoli sifatida dual ta'lim tizimini qayd etish mumkin (Lex.uz., 2017). Dual ta'limning mohiyati — talabalar nazariy tayyorgarligi ta'lim muassasalarida, amaliy tayyorgarligi esa real iqtisodiy sektordagi kompaniyalarda tashkil etilishidadir. Bu tizimning samarali ishlashi uchun davlat miqyosida muayyan qonunchilik asoslari yaratilgan. Masalan, Germaniyada qabul qilingan «Kasbiy ta'lim to'g'risida», «Yoshlar mehnatini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunlar, ta'lim sohasini tartibga soluvchi federal yerlar darajasidagi normativ-huquqiy hujjatlar dual ta'lim tizimini shakllantirishga imkon berdi. Natijada mazkur tizim «ishlab chiqarish faoliyati bilan kelgusi kasbning nazariy asoslarini uyg'unlashtirish, shuningdek, talabalarni ta'lim muhitiga kirib borish mexanizmi» sifatida samarali faoliyat ko'rsatmoqda (Блинов и др., 2010).

Ish beruvchilar, ta'lim muassasalari va davlat o'rtasidagi hamkorlikni qonunchilik yo'li bilan tartibga solishdan tashqari, talabalarga yuqori darajadagi stipendiyalar to'lanishi, haq to'lanadigan stajirovkalar tizimining yaratilishi, amaliyotni o'tgan kompaniyalarda bitiruvchilarni ishga joylashtirish kafolatlari, shuningdek, talabalarni tibbiy va ijtimoiy sug'urtasi tizimi ham qo'llab-quvvatlanmoqda.

Ko'pgina davlatlar bu tajribani qo'llaydi. Bugungi kunda nemis modeli Gretsiya, Italiya, Ispaniya, Xitoy, Shvetsiya, Ruminiya, Janubiy Koreya, shuningdek Afrika mamlakatlarida qo'llanmoqda. Ammo bu davlatlarning barchasi o'z iqtisodiyotining xususiyatlarini hisobga olgan holda tizimni moslashtirmoqda.

O'zbekistonda dual ta'limga yevropacha, ayniqsa, boshqa mamlakatlarda katta muvaffaqiyat keltirgan yondashuvlar o'rganilmoqda. Buning uchun mazkur sohada GIZ loyihalarida turli vositalardan foydalaniladi: tajribani O'zbekistonga moslashtirish uchun yevropalik mutaxassislarini jalb qilishdan tortib, mahalliy manfaatdor shaxslarning Germaniyaga tanishuv va ta'lim tashriflarini tashkil etish, samarali dual ta'lim jarayonini ta'minlaydigan turli muassasalarga tashrif buyurish shular jumlasidandir.

Dual ta'lim tizimidan tashqari, kelgusi iqtisodchilarni tayyorlash jarayonida amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish maqsadida zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlaridan ham foydalanilmoqda. Ular asosan talabalarda zarur kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Eng ko'p tarqalgan metod sifatida keys-metodini qayd etish mumkin. Bu metod dastlab Harvard Business School tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, iqtisodchi talabalar uchun ilk bor 1924 yilda qo'llangan. O'zbekistonda universitetlarida esa keys-metodi 1990-yillar oxiridan boshlab faol qo'llanilib, hozirgi vaqtda iqtisodchilarni kasbiy tayyorlashning ajralmas qismiga aylandi.

Kelajak iqtisodchilarda amaliy kompetensiyalarni shakllantirishda tajriba-sinov ta'lim texnologiyalari va "amaliyot orqali o'qitish" texnologiyalari ham maqbul hisoblanadi. Action Learning metodi deb ataluvchi mazkur yondashuvning asoschisi AQShlik olim Reg Revans (Reg Revans) hisoblanadi. Uning g'oyasiga ko'ra, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash universitetning sherik kompaniyasidagi muammoli vaziyatlarni dars jarayoniga olib kirish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda talabalar nazariy bilimlar asosida biznes-loyihalar tayyorlaydilar va doimiy ravishda kompaniya-sherik bilan hamkorlik qilgan holda asl hayotiy muammolarni hal qilishga o'rganadilar. Bu esa ularga real biznes-tuzilmalardagi noodatiy muammoli vaziyatlarni nazariy emas, balki amaliy jihatdan yechish imkonini beradi (Гордиенко, 2020).

Mamlakatimizda "Menejment" yo'nalishida barcha tayyorgarlik darajalari bo'yicha umumiy o'quv soatlari tarkibida amaliyotning ulushi sezilarli darajada oshirildi. 1-jadvalda iqtisodchilar tayyorgarligining turli dasturlari kesimida amaliyot hajmi bo'yicha qiyosiy tahlil natijalari keltirilgan.

## TDIUda «Menejment» ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv rejalarining qiyosiy tahlili

| Ko'rsatkichlar                         | Amaldagi ishchi o'quv reja       | Yangi ishchi o'quv reja (kredit tizimi)                                                                                                                                                                                                                                                    | O'quv rejalarini farqi |
|----------------------------------------|----------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------|
| Namuna sifatida olingan xorijiy OTMlar |                                  | <a href="#">University of Bristol (Buyuk Britaniya)</a> , <a href="#">University of Southampton (Buyuk Britaniya)</a> , <a href="#">The university of Pittsburgh (AQSH)</a> , <a href="#">The University of Manchester (Angliya)</a> , <a href="#">The University of Hong Kong (Xitoy)</a> |                        |
| Fanlar soni                            | 47 ta                            | 46 ta                                                                                                                                                                                                                                                                                      | 5%kamaygan             |
| Jumladan:                              |                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                            |                        |
| Asosiy fanlar                          | 23 ta                            | 22 ta                                                                                                                                                                                                                                                                                      | 5% kamaygan            |
| Tanlov fanlar                          | 15 ta                            | 15 ta                                                                                                                                                                                                                                                                                      | O'zgarmagan            |
| Mutlaqo yangi kiritilgan fanlar        |                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                            |                        |
| Jami soat                              | 9288                             | 7200                                                                                                                                                                                                                                                                                       | 23% kamaygan           |
| Jumladan:                              |                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                            |                        |
| Jami auditoriya soat                   | 3600                             | 2880                                                                                                                                                                                                                                                                                       | 20% kamaygan           |
| Mustaqil ta'lim soatlari               | 2880                             | 4320                                                                                                                                                                                                                                                                                       | 50 % oshgan            |
| O'qituvchining yuklamasi*              | 6480                             | 2880                                                                                                                                                                                                                                                                                       | 3600<br>55%kamaygan    |
| Malakaviy amaliyot                     | 1620                             | 72<br>(malakaviy amaliyot 4 kursda o'tilishi belgilangan)                                                                                                                                                                                                                                  | 1548                   |
| Yakuniy attestatsiyalar                | 1188<br>(bitiruv malakaviy ishi) | 72<br>(yakuniy loyiha ishi)                                                                                                                                                                                                                                                                | 1116                   |

TDIUda «Menejment» ta'lim yo'nalishi bo'yicha amaldagi ishchi o'quv reja va yangi kredit tizimi asosida ishlab chiqilgan rejaning qiyosiy tahlilidan ko'rinib turibdiki, oliy ta'lim jarayonida sezilarli o'zgarishlar kiritilgan. Birinchi navbatda fanlar sonining 47 tadan 46 taga tushgani, ya'ni 5 foizga kamayishi ta'lim mazmunini optimallashtirish va takroriylikni bartaraf etishga qaratilganini ko'rsatadi. Asosiy fanlar sonining birtaga kamayishi ham shu maqsadga xizmat qiladi, chunki zamonaviy menejmentda asosiy nazariy yo'nalishlar qisqa va sifatli shaklda o'qitilishi talab etilmoqda. Tanlov fanlari soni esa o'zgarmagani, talabalarning mustaqil ravishda kasbiy qiziqishlariga qarab tanlash imkoniyatini saqlab qolganini anglatadi. Shu bilan birga, xorijiy nufuzli universitetlar — University of Bristol, University of Southampton, The University of Pittsburgh, The University of Manchester va The University of Hong Kong tajribalari namuna sifatida olingani, milliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda muhim qadam hisoblanadi.

Jami soatlar 9288 dan 7200 ga, ya'ni 23 foizga qisqartirilgani ta'lim jarayonining samaradorlikka yo'naltirilganini ifoda etadi. Bu o'zgarishda auditoriyadagi soatlar 20 foizga kamaytirilib, 3600 soatdan 2880 soatga tushirilgan, lekin mustaqil ta'lim soatlari 50 foizga oshirilgan — 2880 soatdan 4320 soatga ko'tarilgan. Bunday yangilik talabalarning o'z vaqti va resurslarini samarali boshqarishini, mustaqil izlanish va tadqiqotlarga ko'proq e'tibor qaratishini ta'minlaydi. Natijada, talabalarda faqat nazariy bilim emas, balki mustaqil qaror qabul qilish va kreativ fikrlash ko'nikmalari ham rivojlanishi mumkin.



2-jadval

## TDIU “Menejment” fakulteti “Menejment” ta’lim yo’nalishi bo’yicha kreditlar taqsimoti

|        | Asosiy      |                | Tanlov                              |                                                       |                | Yakuniy loyiha ishi | Malakaviy amaliyot | Har kursdagi jamlanadigan umumiy kreditlar miqdori |
|--------|-------------|----------------|-------------------------------------|-------------------------------------------------------|----------------|---------------------|--------------------|----------------------------------------------------|
|        | Fanlar soni | Kredit miqdori | Talabaga taklif etilgan fanlar soni | Talaba ihtiyoridagi tanlash kerak bo’lgan fanlar soni | Kredit miqdori | Kredit miqdori      | Kredit miqdori     |                                                    |
| 1-kurs | 10          | 60             | 0                                   | 0                                                     | 0              | 0                   | 0                  | 60                                                 |
| 2-kurs | 9           | 50             | 6                                   | 2                                                     | 10             | 0                   | 0                  | 60                                                 |
| 3-kurs | 8           | 40             | 6                                   | 4                                                     | 20             | 0                   | 0                  | 60                                                 |
| 4-kurs | 0           | 0              | 7                                   | 6                                                     | 30             | 10                  | 20                 | 60                                                 |
| Jami   | 27          | 150            | 19                                  | 12                                                    | 60             | 10                  | 20                 | 240                                                |

O’qituvchining yuklamasi keskin kamaygan — 6480 soatdan 2880 soatga tushirilib, 55 foizga qisqartirilgan. Bu o’zgarish pedagoglarning ortiqcha byurokratik va texnik yuklamadan xalos bo’lib, o’quv jarayonining sifatini oshirishga, metodik ishlanmalar tayyorlashga, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilishga ko’proq vaqt ajratish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, malakaviy amaliyotning sezilarli darajada qisqarishi e’tiborga molik: amaldagi rejada 1620 soat bo’lgan bo’lsa, yangi tizimda 72 soat bilan cheklangan. Bu farq — 1548 soatlik kamayish — amaliy ko’nikmalarni chuqur o’zlashtirishda muayyan xavfni keltirishi mumkin. Shu sababli, malakaviy amaliyot to’laqonli o’tkazilishi uchun uning sifatini oshirish, ishlab chiqarish bilan integratsiyani kuchaytirish zarur.

Yakuniy attestatsiyalarda ham jiddiy o’zgarish bor: bitiruv malakaviy ishi o’rniga yakuniy loyiha ishi joriy etilgan va uning soati 1188 dan 72 ga tushgan. Bu, bir tomondan, talabalarni ortiqcha qog’ozbozlikka vaqt sarflamasdan aniq va amaliy loyihalar tayyorlashini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, ilmiy-tadqiqot ko’nikmalarining rivojlanishiga ma’lum darajada cheklov qo’yishi mumkin. Shuning uchun bu jarayonni xalqaro tajribaga asoslanib, amaliy loyiha bilan ilmiy izlanishni uyg’unlashtirish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Yangi kredit tizimi asosidagi ishchi o’quv reja menejment ta’limida ilg’or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda samaradorlik, mustaqil izlanish va akademik mobillikka yo’naltirilgan. Biroq malakaviy amaliyot va yakuniy attestatsiya soatlarining keskin qisqarishi ehtiyotkorlik bilan qayta ko’rib chiqilishi lozim. Shunday qilib, yangi reja ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim qadam bo’lib, uning to’la samara berishi uchun nazariya va amaliyot uyg’unligi ta’minlanishi shart.

### Xulosa va takliflar.

Muxtasar qilib aytganda, xalqaro va milliy tajribalariga tayanadigan retrospektiv tahlil shuni ko’rsatadiki, hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning asosini uchta asosiy yondashuv tashkil etadi: ijtimoiy yo’naltirilgan, amaliyotga yo’naltirilgan va gumanitar yo’naltirilgan yondashuvlar. Shu bilan birga, mutaxassis tayyorlash jarayonida fundamental fanlar blokini kuchaytirish tendensiyasi yaqqol namoyon bo’lmoqda.

Raqobatbardosh va mehnat bozorida talab yuqori bo’lgan mutaxassisni tayyorlash uchun iqtisodchi kadrlarni kasbiy tayyorlash tizimida ushbu uchta yondashuv uyg’un va maqsadli integratsiya qilinishi zarur. Ijtimoiy yo’naltirilgan yondashuvning qo’llanilishi kelajak iqtisodchisining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaliyotga yo’naltirilgan yondashuv — ayniqsa, turli amaliy faoliyat elementlarini o’z ichiga olgan ta’lim

texnologiyalari, amaliyot va stajirovkalarni joriy etish orqali — kelajak iqtisodchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

O'zbekistonda ham oliy ta'lim tizimi so'nggi o'n yillikda Bolonya jarayoniga integratsiya qilinishi va keyinchalik undan voz kechilishi orqali muhim transformatsiya bosqichlarini kechirdi. Biroq iqtisodchi kadrlarni tayyorlash milliy modelida ma'lum xususiyatlar saqlanib qolmoqda. Jumladan, G'arb mamlakatlaridagi iqtisodchi kasbining universallashtuvi yo'nalishidan farqli o'laroq, O'zbekistonda mutaxassislikning muayyan yo'nalishlari bo'yicha chuqur ixtisoslashuvni ta'minlaydigan, fundamental va gumanitar bazisga tayanuvchi model shakllanmoqda.

Shu bilan birga, har bir tor «profil» bo'yicha tayyorlanayotgan iqtisodchi mutaxassisda nafaqat maxsus kasbiy kompetensiyalar, balki zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorida talab yuqori bo'lishi va raqobatbardoshligini ta'minlaydigan universal kompetensiyalar ham shakllantirilishi zarur.

### Adabiyotlar/Lumepamypa/Reference:

Abdullayeva Sh.X. (2019) *Pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: Psixol. fanl. d-ri (DSc) ... Dis. – T.: O'zMU, – 225 b.*

Akhmedova N. E. (2023). *People's practical art traditions as the basis for developing the artistic-pedagogical abilities of future art teachers // Science and innovation, 2(B4), 701-705.*

Begimqulov U.Sh. (2007) *Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: Fan, – 159 b.*

Innazarov M. (2021) *Kredit modul tizimi va o'quv jarayoni tashkil etish: O'quv-uslubiy majmualar. – T.: Bosh ilmiy metodik markaz.*

Inoyatov U.I. (2014) *Pedagogika: Darslik. – T.*

Kalmuratov T. (2024) *Davlat – xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishning amaliyotdagi mavjud holati // Science and innovation. – T. 3. – Special Issue 38. – C. 776-779.*

Lex.uz. (2017). 745-son 19.09.2017. *Бошқарув кадрларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишга доир норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида. [online] Available at: <https://lex.uz/docs/3358139>*

Lex.uz. (2019). ПФ-5847-сон 08.10.2019. *Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. [online] Available at: <https://lex.uz/docs/4545884>.*

Mardonov Sh.Q. (2006) *Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – T.: Fan, – 232 b.*

Turg'unov S.T. (2014) *Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini o'qitish texnologiyalari. – T.: Riso.*

Xo'jamqulov U.N. (2019) *Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ta'rif, tavsif, tasnif: Uslubiy qo'llanma. – Chirchiq.*

Блинов В.И., Сазонов Б.А., Лейбович А.Н., Батрова О.Ф., Волошина И.А., Есенина Е.Ю., Сергеев И.С. (2010) *Национальная рамка квалификаций Российской Федерации. – М.: ФГУ «ФИРО», Центр начального, среднего, высшего и дополнительного профессионального образования, – 7 с.*

Гордиенко О.А. (2020) *Дуальное образование как одна из мировых практик обучения // Теория и практика общественного развития. – №5(147). С. 31-35.*

Дружилов С.А. (2014) *Интеграция с европейской системой высшего образования: преимущества и возможные «подводные камни» // Международный журнал экспериментального образования. – № 5. С. 58-60.*

Жиронкина О.В. (2003) *Формирование профессионально значимых качеств будущих экономистов в процессе изучения общеобразовательных дисциплин: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Кемерово, – 18 с.*

Ингу О. (2007) *Японский менеджмент. Прошлое, настоящее и будущее; пер. с англ. В.А. Спивак. – М.: Эксмо, – 160 с.*